

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Kayumova Dilnoza Pathulla qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxasisilarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, 13-00-08 maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi stajor tadqiqotchi
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.027>

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni istiqlol masifikasi asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoniylari, aqliy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishdan, ularning tug'ma layoqati, qiziqishi, ehtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam ta'lim olishga (maktabga) tayyorlashdan iboratdir.

Kalit so'zlar: maktabgacha tarbiya, matematik tasavvur, maktabgacha yoshdagi bola, maktabgacha ta'lim tashkiloti

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Kayumova Dilnoza Patulla кызы

Институт переподготовки и повышения квалификации директоров и специалистов дошкольных образовательных организаций, 13-00-08 - стажер-исследователь специальности “Теории и методики дошкольного образования”

Аннотация: основной целью воспитания детей дошкольного возраста является воспитание подрастающего поколения как здоровой, всесторонне развитой личности на основе идеологии независимости и подготовка к школьному обучению. Основными задачами воспитания детей дошкольного возраста являются физическое, умственное и духовное развитие детей, подготовка их к систематическому обучению (школе) на основе национальных и общечеловеческих ценностей с учетом их врожденных способностей, интересов, потребностей и возможностей.

Ключевые слова: дошкольное образование, математическое воображение, дошкольник, дошкольная организация

FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN

Kayumova Dilnoza Fatullaevna

Institute of Retraining and Advanced Training of directors and specialists of preschool educational organizations, specialty 13-00-08 theory and methodology of preschool education and upbringing intern researcher

Abstract: the main purpose of educating preschool children is to educate the younger generation as a healthy, comprehensively developed personality based on the ideology of independence and prepare for school. The main tasks of educating preschool children are the physical, mental and spiritual development of children, preparing them for systematic education (school) based on national and universal values, taking into account their innate abilities, interests, needs and opportunities.

Keywords: preschool education, mathematical imagination, preschooler, preschool organization

Kirish. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi, maktabgacha yosh bolalarning ta'lim va tarbiya jarayoni tashkil etishda bir qancha me'yoriy huquqiy hujjalalar ishlab chiqildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" gi O'RQ 595-sonli Qonuni, O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2019-yil

8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sodn Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sodn Qarori va boshqa bir qancha tizimga oid hujjatlar asos bo‘la oladi. [1, 2,3]

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni rivojlanish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qo‘ylgan maqsad va vazifalarning bajarilishi ushbu “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yladigan davlat talablari” orqali nazorat qilinadi.

Davlat talablariga maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga beriladigan ta’lim-tarbiya mazmunining asosiy yo‘nalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo‘yladigan minimal talablar belgilab berilgan bo‘lib, u davlat hujjati sifatida e’tirof etiladi.

Davlat talaba ko‘rsatkichlarini belgilashda davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning jismoniy sog‘lomligi, qobiliyati, ehtiyoji va imkoniyatlari, ya‘ni bola shaxsining ustivorligidan kelib chiqilgan.

Ta’lim-tarbiya mazmunining asosiy yo‘nalishlarida bolalarni jismoniy rivojlanirishga katta ahamiyat berilgan.

Asosiy qism. Bolalarni jismoniy rivojlanishi. Bolalarni maktabga tayyorlashni belgilovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri ularning jismoniy jihatdan rivojlanganlik darajasidir. Bolalar o‘z yoshlariga mos bo‘lgan harakatli, shu jumladan milliy o‘yinlar nomlarini, qoidalarini bilishi va ularda faol ishtirot eta olishi, yugurish va sakrash, yoshiga mos holda belgilangan me‘yorlarni bajarishi, chaqqon harakat qilish, chiniqtirish mashqlarini bajarish kabilarga o‘rgatish maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishini ta’minlovchi ta’lim-tarbiya mazmunining asosini tashkil etadi.

Bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasiga qo‘yladigan minimal talablar.

Jismoniy rivojlanganlik darajasi:

- mustaqil holda jismoniy mashqlar bajara olish;
- buyruqqa (start) asoslanib yugurish;
- xoda ustida o‘tirib oldinga siljish;
- narvon yordamida tepaga chiqish va pastga tushish;
- 5 soniya davomida arqonga osilib turish;
- arg‘imchoq uchish;
- cheklangan sath va chiziq bo‘ylab yurish;
- qiya qo‘ylgan taxta ustidan yurib o‘tish;
- bir oyoqda “qaldirg‘och” bo‘lib turish;
- oyoq uchlari bilan buyumlarni qisib ko‘tarish, pastga tushirish va bir joydan boshqa joyga ko‘chirish;
- joyda turib 15-20 marta sakrash;
- 70 sm uzunlikka sakrash;
- 30 sm balandlikdagi to‘siqdan sakrab o‘tish;
- to‘xtamasdan 2-3 daqiqa davomida yugurish;
- 100 m masofani to‘xtamasdan yugurib o‘tish;
- 10 m masofani emaklab o‘tish;
- safda to‘g‘ri turish va safni buzmasdan yurish;
- saflanish va qayta saflana olish;
- musiqa ohangiga mos holda harakat qilish;
- koptokni irg‘itish va ilib olish;
- ilon izi shaklida yurish;
- to‘p-to‘p bo‘lib, aylana bo‘ylab yurish;
- chiniqtirish mashqlarini bajarish;

-xalq o‘yinlari –“Kim chaqqon”, “Oq terakmi-ko‘k terak”, “Avvalakam”, “Chittigul” kabi harakatli o‘yinlarda ishtirot eta olishdan iboratdir.

Maktabgacha ta’limning tarkibi va mazmunini qayta kontseptsiyasi yangicha fikrlash,

o'zbek xalqining milliy an`analari, qadriyatlari, xalq ijodiyotining o`ziga xosligi, tilda o`z aksini topuvchi tafakkur xususiyatlari, xalq pedagogikasining ulkan tajribasi, milliy o`z-o`zini anglash masalasi alohida o`rin egallaydi.

“Maktabgacha tarbiya kontseptsiyasida” jismoniy tarbiya, gigiyena va salomatlikka alohida e`tibor berilgan.

Mehnat va ijodiy faoliyatga qodir, ijtimoiy vazifalarni to`laqonli bajaruvchi ham jismonan, ham ma`nan kishinigina sog`lom deyish mumkin.

Tarbiyachi maktabgacha yoshidagi bolalar jamoasida bo`lib, ta`lim va tarbiya dasturini egallaydi, xilma-xil o`yin, o`quv va mehnat faoliyatini amalga oshiradi. “Salomatlik” tushunchasining tarkibiy qismi bo`lgan jismoniy va ruhiy beshikastlik bolaning o`sish va rivojlanishining me`yorida ketishini nazarda tutadi.

Bolalarning gigiyenik va jismoniy sog`lomliklari ko`p jihatdan sog`liqni saqlash va xalq ta`limi tizimlarining hamkorlikdagi ishlariga bog`liq bo`ladi.

Bolalar jismoniy rivojlanishining o`ziga xos xususiyatlari. Bolalarni rivojlanish yosh xususiyatlarini o`rganishga yosh davrlariga katta e`tibor karatish lozim. Bolalarni yosh davrlariga bo`lishda bir qancha olimlar ilmiy-tadqiqotlar olib borganlar. L.S. Vagotskiy, L.I. Bojovich, D.B. El`konin, A.A. Lyublinskaya, A.V. Petrovskiy o`zbek psixolog olimlaridan M. Vohidov, E. G`oziev, S.A. Axundjanova, M.Sh. Rasulova, R.I. Sunnatova va boshqalar yosh davrlarini turli yosh bosqichlariga yaratish bo`yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar. Shularga asoslangan holda yosh davrlarini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin:

- go`daklik davri – tug`ilgandan 1 yosh gacha;
- ilk bolalik davri – 1 yosh dan 3 yosh gacha;
- maktabgacha davr – 3 yosh dan 7 yosh gacha;
- kichik maktab yoshi davri – 7 yosh dan 11 yosh gacha;
- o`rta maktab yoshidagi bolalar – 11 yoshdan 14 yoshgacha;
- katta maktab yoshidagi bolalar – 15 yoshdan 18 yoshgacha.

Bolani ruhiy va jismoniy rivojlanishida go`daklikdan – maktabgacha bo`lgan davri eng muhim davr bo`lib hisoblanadi.

Bola hayotining dastlabki 7 yili barcha organ va tizimlarning intensiv rivojlanishi bilan har akterlanadi. Bola naslga xos biologik xususiyatlar, jumladan, asosiy asab jarayonlarining tipologik xususiyatlari (kuch, muvozanatlilik va harakatchanlik) bilan ham tug`iladi.

Biroq xususiyatlar farq jismoniy va ruhiy rivojlanishlarning asosini tashkil etadi, bola hayotining birinchi oylaridagi belgilovchi omil esa tashqi muhit va bola tarbiyasi hisoblanadi.

Shuning uchun bola hayotining ilk kunlaridan boshlab shunday shart-sharoit yaratish kerakki, bolaning tetik, ijobiy emotsiyonal holati, jismoniy va ruhiy to`laqonli rivojlanishi ta`minlansin.

Bolalar bo`yining o`sishi va vaznining ortishi bilan bir vaqtida ko`krak qafasi aylanasida ham o`zgarishlar sodir bo`ladi, hayotining 4-yilida u 0,5-1 sm, 5-6 yoshda 2-2,5 sm ga ortadi. Ko`krak qafasi aylanasi kattaligi bolaning miqtiligiga, uning jismoniy rivojiga bog`liq bo`ladi.

Bola o`sar ekan, gavda proporsiyasi ham o`zgaradi. Masalan, hayotining 7-yilida oyoqlarining uzunliga yangi turilgan bolalarnikiga qaraganda uch hissadan, qo`llari - 21/2 xissadan ko`proq ortadi, tana esa 2 xissa uzayadi. Bu yoshda asosan bola organizmining suyaklar to`qimasi strukturasi shakllanishi tugaydi.

Umurtka pog`onasining bo`yin, ko`krak va bel bo`limlarida fiziologik kiyshaymalar paydo bo`lishi hayotining 1-yilidan boshlanadi va 6-7 yoshgacha davom etadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning skeleti ma`lum darajada tog`ay to`qimalaridan iborat bo`ladi, shu sababli uning shakli noqulay ta`sirotlar (tananing noqulay vaziyatda bo`lishi, uzoq vaqt tik turish, o`tirish, o`rinning, mebelning noqulay bo`lishi) oqibatida osongina o`zgaradi. Ana shu xususiyatlar hisobga olinmasa va bola to`g`ri jismoniy tarbiya qilinmasa, uning qomatida o`zgarishlar paydo bo`ladi (bu qon aylanishi funktsiyasiga, nafasga yomoq ta`sir qiladi), suyaklar noto`g`ri o`sadi.

Hayotining 1-yilidan boshlab va maktabgacha tarbiya yoshidagi davr mobaynida oyoq, kafti gumbazi shakllanadi, uning to`g`ri shakllanishi uchun esa tegishli mashqlar qilish, faqat

poshnali poyabzal kiyish kerak. Maktabgacha tarbiya yoshida bo`g`imlarning bog`lam apparati ancha harakatchan bo`lib qoladi, bunga muskullar, bog`lamlar va paylarning kattalarnikiga qaraganda elastik bo`lishi sabab bo`ladi.

Maktabgacha ta`lim yoshidagi kichik bolalarda yozuvchi muskullar etarli rivojlanmagan va ancha nimjon bo`ladi, shu sababli bola ko`pincha noqulay vaziyatda turadi - boshini tushiradi, elkalarini qisadi, bukchayadi, ko`kragini ichiga tortadi, 5 yoshga borib muskulatura, xususan oyoqlar muskulaturasi ancha rivojlanadi. Muskullar baquvvat bo`lib qoladi, ularning mehnat qobiliyati ortadi.

Maktabgacha ta`lim yoshida bronx-o`pka apparati sifat jihatidan tez o`sadi va takomillashadi. Nafas tezligi minutiga 26-22 tagacha kamayadi, nafas olish, chuoqroq nafas chiqarish esa davomliroq bo`lib qoladi. Shu yoshdagi bolalarda qon aylanishi organlarida anchagina anatomik va funktsional o`zgarishlar paydo bo`ladi: yurak massasi ortadi, shu tufayli yurak qisqarishlari kuchi va yurak chidamliligi oshadi. Yurak qisqarishlari soni minutiga 85 dan 95 atrofida. Arterial bosim yosh katta bo`lishi bilan deyarli o`zgarmaydi: 3-4 yoshda 95/59 mm simob ustunida, 5-6 yoshda 95/58 mm simob ustunida, 7 yoshda 97/58 mm simsib ustunida bo`ladi.

Maktabgacha ta`lim yoshida markaziy asab tizimi morfologik va funktsional jihatdan rivojlanishda davom etadi. Ikkinchi signal tizimi tez takomillashadi, uning yordamida so`zga shartli reflekslar paydo bo`ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda maktabgacha yosh bolalar tabiatdan tadqiqotchidirlar va bolalarda shartli reflekslar tez paydo bo`lishi bilan kattalardan ajralib turadilar, biroq bu reflekslar birdan mustaxkamlanmaydi va malakalar bolada dastlab barkaror bo`lmaydi, osonlik bilan yo`qoladi. Bosh miya po`stlog`ida qo`zg`alish va tormozlanish jarayonlari osonlik bilan tarqaladi, shu sababli bolalarning diqqati bekaror bo`lib turadi, javob reaksiyalari emotsiyal tabiatga ega bo`ladi va ular tez charchab qoladilar. Shu sababli, ma`lum harakat malakalari paydo bo`lishi uchun ta`sirotlarni tez-tez takrorlab turish kerak. Bolalarda harakatlarning rivojlanishiga ma`lum tartibda jismoniy mashqlar bilan shu g`ullanish yordam beradi. Bu yoshda yugurish, yurish, sakrash, narsa uloqtirish takomillashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 dekabrdagi “Maktabgacha ta`lim va tarbiya to`g`risida” gi O`RQ 595-sonli Qonuni.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil

8-maydagи “O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta`lim tizimini

2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PQ-4312-son Qarori.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi “2017-2021yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi PQ-2707-son Qarori.

“Ilk qadam” Davlat o`quv dasturining takomillashtirilgan ikkinchi nashri.

“Tadqiqiy bilish va tajriba-tadqiqotchilik faoliyati” metodik qo`llanma. G.A. Omonova, G.G. Ismanova, M.P. Jumakova.

F.R.Qodirova. R.M Qodirova. «Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi». T., «Istiqlol», 2006.

Axmedjanov M.M., Xo`jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014

Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. PsychologyandEducationJournal, 58(2), 1339-1345.

Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta`limda innovatsion texnologiyalar / Ta`lim muassasalari o`qituvchi-o`qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. - T.: «Iste`dod» jamg`armasi, 2008. - 180 b.

Sayfullaeva D. et al. Improving the quality of education in higher educational institutions with the using innovative educational technologies //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – T. 2647. – №. 1.